

ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH
MAZMUNI

Hasanova Shalola Farxojovna
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada art pedagogikasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash, estetik did va san'atga bo'lgan qiziqishini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, art pedagogikasining didaktik ahamiyati va zamonaviy o'qitish jarayonida qo'llanilishi bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: art pedagogika, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim, san'at, didaktika, innovatsiya

Аннотация: В данной статье анализируются возможности формирования творческого мышления, эстетического вкуса и интереса учащихся начальных классов к искусству посредством арт-педагогике. Также даны практические рекомендации по дидактической значимости арт-педагогике и ее применению в современном учебном процессе.

Ключевые слова: художественная педагогика, творчество, начальное образование, искусство, дидактика, инновации

Annotation: this article analyzes the possibilities of forming the interest of Primary School students in creative thinking, aesthetic taste and art through art pedagogy. Practical recommendations are also given on the didactic significance of art pedagogy and its application in the modern teaching process.

Keywords: art pedagogy, creativity, primary education, art, didactics, innovation

Kirish. Har qanday ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ijodkorlik - bu nafaqat san'at sohasidagi faoliyat, balki barcha fanlar va hayotning turli jabhalarida yangilik yaratish, yangi g'oyalar paydo qilish, muammolarni hal etish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijodkorlik, ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishi, kreativ fikrlash va muammolarni hal etishga bo'lgan qiziqishini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham

muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda ijodkorlik, yangiliklar yaratish va o'z fikrini ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimini raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardandir. Shuning uchun, san'at pedagogikasi vositalari orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hozirgi zamon ta'limida dolzarb vazifalardan biridir.

Dolzarblik. Bugungi kunda ta'lim tizimida ijodkorlik qobiliyatining rivojlanishi har qachongidan ham dolzarblashdi. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va tez o'zgarayotgan ijtimoiy sharoitlar sharoitida yangi g'oyalarga, innovatsion yechimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, qobiliyatlari va muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kelajakda foydalanishi uchun juda muhimdir.

San'at pedagogikasi vositalari orqali ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. San'atga oid faoliyatlar o'quvchilarda kreativlik, o'z o'zini ifoda etish va individual fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. O'rganish jarayonida san'at elementlarining integratsiyasi, o'quvchilarning o'zlarini yaratish va o'z g'oyalarini ifodalay olishlariga yordam beradi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Ijodkorlik tushunchasi ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Amerikalik psixolog V. L. Torrensning ijodkorlik qobiliyatlari haqidagi ishlari, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalashda ta'lim tizimining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ijodkorlik nafaqat san'at sohasida, balki barcha fanlarda ham muhimdir. Bu fikrlar, san'at pedagogikasi orqali o'quvchilarga ijodiy ko'nikmalarni o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

San'at pedagogikasi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda noyob imkoniyatlar taqdim etadi. Adabi yurtida san'atni ta'lim jarayonida qanday integratsiya qilish mumkinligi haqida bir qator ishlanmalar mavjud. Masalan, I. Nyushin va L. V. Zaitseva kabi tadqiqotchilar san'at darslari orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish va o'z-o'zini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berishgan. Ularning tadqiqotlari san'at bilan bog'liq faoliyatlarning ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'quv jarayonida turli ijodiy faoliyatlar (rasm chizish, musiqa, teatr) orqali o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi haqidagi fikrlarni ko'rsatadigan bir qator manbalar mavjud. Masalan, A. I. Krutovskiy tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, ijodiy ishlar o'quvchilarning o'z fikrini ifodalash va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim ekanini isbotlaydi.

Ijodkorlikni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va texnikalar haqida ham ko'plab manbalar mavjud. Masalan, interfaol metodlar, loyiha asosidagi o'qitish, va tajribalar orqali ijodkorlikni rag'batlantirish bilan bog'liq tadqiqotlar.

O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda san'at pedagogikasi orqali ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar ham mavjud. Ular ijodiy faoliyat ko'rsatmalari, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar orqali taqdim etilgan. Ushbu adabiyotlar tahlili san'at pedagogikasining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda amalga oshiriladigan ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar buni yanada chuqurroq o'rganishga va ta'lim jarayonlarida yangi yondashuvlarni joriy etishga imkon beradi. Ushbu izlanishlar o'quvchilarning jarayonlariga qiziqishini, ularning ijodiy qobiliyatlari va muomala madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida san'at pedagogikasining o'rnini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ijodkorlikni shakllantirish bola tafakkuri va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan art pedagogika, ya'ni san'at orqali o'qitish metodikasi, ijodiy salohiyatni ochib berishning samarali vositasiga aylanmoqda. Art pedagogikasi - bu o'quvchilarni rasm chizish, musiqa, teatr, haykaltaroshlik, qo'lda yasalgan ishlar va boshqa badiiy faoliyatlar orqali o'qitish usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki his-tuyg'ularini, dunyoqarashini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali o'z individual salohiyatini to'liq anglab yetmagan, biroq ularning tasavvuri, qiziqishi va ijodiy fikrlashi yuqori darajada faollikda bo'ladi. Shu bois ularni ranglar bilan o'ynash, musiqaga ohang topish, ertaklar sahnalashtirish kabi faoliyatlar orqali o'rgatish juda muhim.

Art pedagogikasi – bu san'at orqali ta'lim berishning eng nafis, lekin eng ta'sirchan usullaridan biridir. U o'quvchining nafaqat bilimini, balki butun shaxsini, qalbini, estetik hissiyotlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy ta'limda art pedagogikasining o'rni tobora ortib bormoqda. Bu yondashuv bolalarni emas, ularning qalbini ham o'qitadi – eng yaxshi natija esa aynan shu uslub orqali erishiladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda fantaziya kuchli bo'ladi. Art pedagogikasi esa aynan shu tasavvur va fantaziyani mustahkamlab, uni foydali faoliyatga yo'naltirishga yordam beradi. Misol uchun:

- rassomlik darslarida erkin rasm chizishga ruxsat berish;
- musiqa darslarida improvizatsiya qilish imkonini yaratish;
- drama darslarida kichik sahna ko'rinishlarini o'ynash.

O'qituvchi bu jarayonda yo'l boshchi rolini o'ynaydi. U har bir boladagi iste'dodni ko'rib, uni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishi kerak. Masalan:

- motivatsiya berish;
- tanqid qilishdan ko'ra, rag'batlantirish;
- guruhli ishlarga jalb qilish.

Art pedagogikasi jarayonida o'qituvchi faqat dars o'tkazuvchi emas, balki bola bilan ruhiy aloqada bo'ladigan rahnamo rolini bajaradi. Misol: O'qituvchi har haftada "Ijodiy burchak" tashkil etdi – bu yerda o'quvchilar rasm, qo'shiq, she'r yoki qo'l mehnati orqali o'z ijodini namoyon qildilar. Bu ularning ichki dunyosini ochib, o'zaro hurmat va ishonch muhitini yaratdi. Hatto o'rtacha o'quvchilar ham shu faoliyatda porlay boshladi. Shuningdek, Rolli o'yinlar va sahnalashtirish orqali o'quvchilar nutqni rivojlantiradi, obrazga kirish, his qilish, boshqalarga quloq solish va jamoaviy ishlashni o'rganadi. Masalan, 2-sinfda "Do'stlik haqida" kichik sahna tayyorlanadi. Har bir o'quvchiga o'ziga mos rol tanlatiladi. Ilk mashg'ulotda tortinchoq bo'lgan bola rol o'ynash davomida ko'proq ishonch bilan gapira boshlaydi. Hatto sinf oldida chiqish qilishdan qo'rqmaydigan darajaga keladi. O'qituvchi art pedagogikasi orqali uning nutqiy faolligini oshiradi.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, art pedagogikasi – nafaqat didaktik vosita, balki bolaning qalbiga yo'l topuvchi, uni anglash va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiluvchi ta'lim shaklidir. U har bir bolada mavjud bo'lgan ijodiy salohiyatni ochadi va ularni mustaqil, o'ziga ishongan, estetik ongli shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim o'rin egallaydi.

Art pedagogikasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi natijalarga erishadilar:

- O'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati ortadi;
- Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- O'ziga ishonch va ijobiy munosabat shakllanadi;
- San'at orqali milliy qadriyatlar singdiriladi.

Art pedagogikasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat ijodiy salohiyat, balki shaxs sifatida o'zini anglash, atrof-muhitga estetik qarash, ijobiy emotsional holatlarni shakllantirish mumkin. Bu esa, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Art pedagogikasi orqali rivojlantirish imkoniyatlari:

1. Rangtasvir darslari – o'quvchilarning estetik didini shakllantirib, ularni atrof-muhitga nisbatan e'tiborli va sezgir qiladi.
2. Musiqa saboqlari – ritm, ohang, his-tuyg'ularni ifodalash orqali bolalarning ichki dunyosini boyitadi.
3. Teatr elementlari – rolli o'yinlar orqali o'quvchilarning muloqot madaniyatini, jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.
4. Qo'l mehnati mashg'ulotlari – tafakkur, sabr-toqat va estetik zavqni oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda art pedagogikasini keng qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini erta bosqichdayoq rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning kelgusidagi mustaqil fikrlovchi, estetik dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchilar art pedagogikasi usullarini chuqur o'rganib, dars jarayonlarida faol qo'llashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, ART pedagogikasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ijodkorligi, tasavvuri, estetik didi, his-tuyg'ulari ham rivojlanadi. San'at vositalari orqali bolalar o'z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi, o'zini anglaydi va atrofdagi olamga chuqurroq nigoh bilan qaraydi.

ART pedagogikasining boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularda ijodiy salohiyatni ochish, o'zini ifoda qilishga bo'lgan ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim bosqich hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi san'at orqali bolaga nafaqat bilim, balki qalb tarbiyasini ham berishga intilishi lozim. Shu boisdan art pedagogikasini ta'lim jarayoniga kengroq tatbiq etish va o'qituvchilarni bu borada malakali qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov, A. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021.
2. G'ofurov, Q. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Qodirova, M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Sultonova, D. San'at pedagogikasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
5. Karimova, S. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda art terapiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.